SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 16-avgust | 263-8-114-Q/24 | Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi “Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-298-sonli qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga,

yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik shakil, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n bir yildan o‘n to‘rt

yilgacha (o‘n to‘rtinchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi;

ishlab chiqarilganligidan qat’i nazar transport vositalarini DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda (qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda), ularning agregat raqamlari texnik hujjatlarga mosligi tekshiriladi.

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart - 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr - 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markazi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6.Transport vositalarining majburiy texnik koʻrigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq oʻtkaziladi hamda tegishli yigʻim oʻndiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat koʻrsatish stantsiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik koʻrikdan oʻtkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik koʻrikdan oʻtkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini oʻz vaqtida texnik koʻrikdan oʻtkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori 3-bandiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy boʻlinmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazilishi inobatga olinsin.

9. Mazkur qaror “Qumqoʻrgʻon sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi oʻrinbosari M.Zairov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Normamatov**

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 16-avgustdagi
263-8-114-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalari texnik ko‘rigini o‘tkazishni tashkil etuvchi komissiya

T A R K I B I

Komissiya raisi

U.Kenjayev - Qumqo‘rg‘on tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, katta kapitan

Komissiya raisi o‘rinbosari:

M.Zairov - Qumqo‘rg‘on tuman hokimining o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

Lavozimiga ko‘ra - Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB ma’muriy amaliyot inspektori,

Komissiya a’zolari:

Lavozimiga ko‘ra - Surxondaryo viloyati Transport boshqarmasi sektor mudiri

G‘.Raxmonov - Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i *(kelishuvga asosan)*

Lavozimiga ko‘ra - Sug‘urta kompaniyalarining mutaxassislari *(kelishuvga asosan)*

Lavozimiga ko‘ra - Tuman Avto moto havaskorlar ko‘ngilli jamiyati a’zosi *(kelishuvga asosan)*

Qumqo‘rg‘on tuman hokimining
2024-yil 16-avgustdagi
263-8-114-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tuman hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Transportlar soni
1.	Tuman Elektr tarmogi	10.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	4
2.	Denov Neftobaza UKSI Qumqo‘rg‘on	18.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	9
3.	Surxon PIB A/J	22.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	41
4.	Surxondaryotelekom SHK Qum-n	11.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
5.	Tuman Markaziy kaslxona	11.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	2
6.	Tuman DSENM markazi	10.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3
7.	Qumqo‘rg‘on qishloq xo‘jaligi texnikum	08.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	6
8.	Ya.T.Niyozov Abdulqosim	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
9.	Qum quril avtotrans kol	11.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	2
10.	Tuman Moliya bo‘limi	04.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
11.	Tuman Xalq ta’lm bo‘limi	18.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
12.	Tuman Maktabgacha ta’limi	18.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
13.	Qumqo‘rg‘on MK Vatanparvar	22.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	12

14.	Guliston MNZ f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
15.	Saodat f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
16.	Niyozov Abdunabi f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
17.	Qorsaqli f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
18	Mehnatobod XX1asr f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
19.	Parda Mirzo f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
20.	Jura Almurodov f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
21.	Mirjalol tokzori f/x	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
22.	Ashur Mamarajabov f/x	15.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	
23.	Abubakir ziroatchi f/x	15.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
24.	Xolq Azim f/x	15.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
25.	Bo‘ston Firdavs f/x	15.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
26.	Anxor f/x	15.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
27.	MunchoqtepaIstiqbol f/x	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
28.	Mirzo Olim f/x	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
29.	Musurmon Aliyarov f/x	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
30.	Ilxom Raxmon fx	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
31.	Abdinazar Raim f/x	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
32.	Sayxon f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
33.	Qumqo‘rg‘on mujizasi f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
34.	O‘ktam Sarvar f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
35.	Akmal Mirjalol f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
36.	Rejabpalvon f/x	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
37.	Normat Urozali f/x	10.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
38.	Asadbek Imkon f/x	10.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
39.	Mamatmurodov Fayzi f/x	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1

40.	Said Axmad Saidiy f/x	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
41.	“Kattako‘” f/x	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
42.	Juma Chorrvador f/x	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
43.	Shuxrat Muxtarov f/x	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
44.	Qumqo‘rg‘on Gaz ta’minot	04.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	5
45.	Tuman Obodonlashtirish boshqarvasi	04.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3
46.	Toza hudud DUK	04.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	10
47.	Sur-yo mag tiz boshkarmasi	10.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	10
48.	Tuman Kva SXB	08.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	2
49.	Jan sur suv ombori	04.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	8
50.	Sayxon naslchilik Sh/X	12.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3
51.	Tuman Vetirinariya bo‘limi	11.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
52.	Tuman suvoqova	11.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
53.	A/Ж Qumqo‘rg‘on MTP A/J	15.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3
54.	Tuman Soliq boshqarmasi	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
55.	Tuman YXDUK	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	3
56.	Surxon kombinati OTXJ	19.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	8
57.	Universal quruvvchi MCHJ	18.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
58.	Sherxon Sulaymanov X/K	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
59.	Yusufbek gavhari MCHJ	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
60.	Makedon fayz X/K	12.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	2
61.	Abdimo‘min Quvvat MCHJ	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
62.	Abdulazizbek Raxmnddinov X/K	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
63.	Xusanbek Anvar X/K	12.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
64.	Mexanik X/K	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
65.	Qumqo‘rg‘on san sav kompleks	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1

66.	Xusanbek X/k	22.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
67.	Tuman mahalla hayriya jamg‘armasi	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
68.	Elbek Niyozov X/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
69.	Davron KB X/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
70.	Bobur bunyodkori x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
71.	Kamaz x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
72.	Botirali x/k	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
73.	MENYuZR-2004 KTXF	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
74.	Surxon Sultonbek x/k	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
75.	Choribobo KTXF	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
76.	Ruslan Mirzo x/k	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
77.	Qumqo‘rg‘on Diyor MCHJ	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
78.	Shoxjaxon Islombekovich	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
79.	Yoshlar ishlari agentligi	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
80.	Janubsanoatinjeneriring x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3
81.	Jiydali Barakat x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
82.	Surxon Sarbon MCHJ	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	5
83.	Eshmat Oqsaqol x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
84.	A.Niyozov Ya.T.T	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	6
85.	TRANSMASHTRAKTORCERVIS MMTP	18.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
86.	Jayxun tulpori x/k	18.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
87.	Uzun maxsus qurilish	18.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
88.	Binokor qurilish x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
89.	MIRSODIQ Sog’lomlashtirish	29.04	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	1
90.	Strapanqurilish MCHJ	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
91.	Munchoqtepa ICH va TK	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1

92.	Qumqo‘rg‘on meliorator MCHJ	22.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
93.	Anvarbek o’quv maktabi NTM	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	6
94.	Oqjar-Bandixon x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	4
95.	Mirzo Xusniddin X/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
96.	Abdug‘ani texservis x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
97.	Qumqo‘rg‘on Sharof MCHJ	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
98.	Axadxon x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
99.	Jaloir Nux KTXICHK	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
100	U-M-Gaza ko‘p tarmoqli x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
101	Somon yo‘li x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
102.	Anxor bulok x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
103.	Baraka x/k	29.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
104.	Saydulla Qultayev noni MCHJ	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
105.	Allayarov Muhiddin biolab	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
106.	Salim Abdulla o‘g‘li x/k	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
107.	ROTOR x/k	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
108.	Tuman bandlikga ko‘maklashish markazi	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
109.	Elkor Sharq MCHJ	19.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
110.	Tuman Agrobank	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
111.	Baxt uchquni MCHJ	24.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	3
112.	RAMS urug‘ MCHJ	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
113.	Oltinchigit qo‘shma korxonasi	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
114.	Ziyo-Dovud x/k	10.05	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	4
115.	Qumqo‘rg‘on transservis x/k	10.05	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	4
116.	Avtomustang x/k	10.05	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	4
117.	Mehribonlik o’g’lonlari	10.05	9-00 dan 17-00gacha	Tashkilot garaji	3

118.	Qumqo‘rg‘on Istiqloli shox bekati MCHJ	10.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	3
119.	Gulnoza Ahmad x/k	13.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
120.	Gvalaba mineral o‘g‘it MCHJ	13.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
121.	Surxon g‘alaba trans	13.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
122.	Qumqo‘rg‘on vtor chet met	07.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	6
123.	Surxon Islombek x/k	06.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
124.	Qumqo‘rg‘on Ilhom Quvvat x/k	06.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
125.	Begzod yo‘l qurilish MCHJ	06.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
126.	Ollayor polvon x/k	06.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
127.	Surxon Sultonbek x/k	07.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
128.	Surxon Sodiq avto x/k	07.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
129.	Surxon ICHK	07.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
130.	Curxon kata qurilish MCHJ	07.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
131.	Umidbek Almirza qurilish	17.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
132.	Yangiyer servis HJqurilish	17.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
133.	Pokiza Mashxura MCHJ	17.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
134.	LOCHIN KTXK	17.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	3
135.	Madina Ilyos MCHJ	17.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
136.	Qumqo‘rg‘on Chamani	20.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
137.	O‘ktam chorvador x/k	20.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
138.	Ibn Sino Xususiy dorixonasi	20.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
139.	Xunsamkam trans x/k	20.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
140.	Sarbon Sevinch MCHJ	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
141.	Joziba Mebil	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
142.	Abdulfayz Xusanov x/k	26.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	2
143.	Charag‘bon Ustalari x/k	16.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	5

144.	Diyora Sardor x/k	16.05	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1
145.	Qumqo‘rg‘on mebel MCHJ	04.04	9-00 dan 17-00gacha	YPX maskani	1